O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI O‘RTA CHIRCHIQ TUMAN HOKIMI

Q A R O R I

O’rta Chirchiq tumani 111507, Uyg’ur MFY, Yoshlik ko‘chasi, 1-uy. Tel: (70) 76-29-505

2023 - yil 18 - yanvar 10-10-143-Q/23 O‘rtachirchiq tuman hokimligi

O’rta Chirchiq tumanida maktab yoshidagi bolalarni o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalari, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomning 39-bandiga asosan tumanda maktab yoshidagi bolalarni umumiy ta’limga qamrab olish jarayonida umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017 yil 15 martdagi 140-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda maktab yoshidagi bolalarni o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari A.Xonto’rayev, tuman xalq ta’limi bo‘limi (A.Dadajanov) tumandagi umumta’lim muassasalari rahbarlari zimmasiga maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish, o‘quvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

4. Belgilansinki, tumandagi umumta’lim muassasalari rahbarlari o‘zlari rahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o‘z vaqtida umumta’lim muassasiga o‘qishga jalb qilish uchun ma’sul hisoblanadi.

5. Mazkur qaror “Mash’al” gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligi rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2020 yil 13 iyuldagi 2388-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Xonto’rayev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.b **I.Kasimov**

O‘rtachirchiq tuman hokimining
2023 yil 18 yanvardagi
10-10-143-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Tumanda maktab yoshidagi bolalarni o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)

RO‘YXATI

№	Maktab raqami	MFY nomi	Ko‘cha nomi
1	3	"Fayzobod" MFY	Sahovat ko‘chasi 75-uy
2	5	Qaytmas MFY	"Farovonlik" ko‘chasi
3	6	“O‘rtaovul" MFY	Rivoj ko‘chasi 63-uy
4	7	Yangiobod MFY	Jaloyir ko‘chasi №10
5	8	Yangiyo‘l MFY	Yangiyo‘l ko‘chasi 98-b uy
6	11	Burgalik MFY	Xamkor ko‘chasi
7	12	Qoraqo‘yli MFY	Qoraqo‘yli ko‘chasi
8	14	Chang tepa MFY	Soy bo‘yi 29
9	15	Yoriq MFY T	Tojiev ko‘chasi 2- uy
10	16	Rovatak MFY	Q.Ergashev ko‘chasi 150- uy
11	17	Kuchlik MFY	Maqsad ko‘chasi 1- uy
12	18	Nomdanak MFY	Nomdanak MFY
13	20	Taraqqiyot MFY	S.Pulatov kuchasi
14	21	Yangiobod MFY	Yangiobod ko‘chasi 46- uy
15	22	Uyg`ur M.F.Y.	Tog‘izoq ko‘chasi
16	23	Xalqobod M.F.Y	Axmad Yassaviy kuchasi
17	24	"Yuqoriovul" MFY	Farg‘ona yo‘li ko‘chasi 18-uy
18	27	"O‘rtaovul" MFY	Bo‘ston ko‘chasi 57-uy
19	28	Darxan M.F.Y.	Muxtar Avezov ko‘chasi
20	29	Galabotir MFY	Galabotir shox kuchasi 101-uy
21	30	Ko‘tarma MFY	Ko‘tarma 2 ko‘chasi 246-uy
22	31	Jang‘abay MFY	Jang‘abay kuchasi
23	33	Aranchi MFY	Yusupov ko‘chasi
24	34	Mingtepa MFY	Toshkent yuli ko‘chasi 25-uy
25	35	Boyovul MFY	Uyshun-1 kuchasi
26	36	"Argin-Sada" MFY	"Shabnam" ko‘chasi
27	37	A.Yo‘lbarisov MFY	Chorvachi ko‘chasi 89-uy
28	38	O‘choqli MFY	Obodonchilik ko‘chasi
29	39	Usmon ota MFY	Usmon ota ko‘chasi 7- uy
30	40	"Saidovul-Baxt" MFY,	Zarxayot ko‘chasi, 24 uy
31	41	"Ko‘kmo‘yin" MFY,	Ko‘kmo‘yin ko‘chasi, 1 uy
32	42	"Do‘stlik" MFY, A.	Qodiriy ko‘chasi,
33	43	Adolat MFY	Zakovat kuchasi- 23
34	44	"Toshloq" MFY,	Ok oltin ko‘chasi,
35	46	Yangiyo‘l MFY	Tinchlik ko‘chasi
36	47	A.Yo‘lbarisov MFY	Bog‘zor ko‘chasi 73-uy
37	49	Uyg`ur MFY	Shodlik kucha 3 uy
38	50	Yangi turmush MFY	Qanot kucha 47 uy
39	51	Oltio‘g‘il MFY	Vatanparvar ko‘chasi 28-uy
40	54	"Bunyodkor", MFY	Navbahor ko‘chasi, 5 a
41	55	Qo‘shdaryo MFY	Guliston kuchasi
42	56	Chegara MFY	Chegara mahallasi
43	58	Mustaqillik MFY	Mustaqillik maxallasi
44	59	Kim Pen Xva MFY	O‘qituvchilar ko‘chasi № 1
45	60	Gulobod MFY	O‘qituvchilar ko‘chasi 2
46	61	Yo`ng`ichqoli MFY	Baxor ko‘chasi
47	63	Guliston MFY	Buyuk ipak yo‘li ko‘chasi
48	64	Aranshi MFY	Sunak maxallasi
49	65	Mash`al MFY	Kukalamzor kuchasi

50	66	"Turkiston" MFY,	Turkiston kuchasi
51	67	"O‘rtasaroy " MFY	"O‘rta Saroy" ko‘chasi 82-uy
52	68	Beshboy MFY,	Beshboy ko‘chasi
53	69	Ko‘tarma MFY,	Navro‘z ko‘chasi
54	70	Aranshi MFY,	Besari ko‘chasi
55	71	Guliston MFY	Navro‘z ko‘chasi 3 uy
56	72	Qorasuv MFY	Rovatak ko‘chasi 1 uy